

## CHINGIZXON VA SULTON XORAZMSHOX MUNOSABATLARI TARIXIDAN

**Bekmuradov Sandjar Tursunmamatovich**

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Tarix kafedrasи katta o‘qituvchisi

E-mail: [stb.uz.com@gmail.com](mailto:stb.uz.com@gmail.com)

**Muxtorova Gulhayo Alisher qizi**

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Tarix kafedrasи 2-kurs talabasi

### ANNOTASIYA

Ma’lumki, Vatanimiz tarixi boy, o‘tmishi shonli. Moziy hikoyanavislari – qadimiy qo‘lyozmalar, san’at asarlari, osori-atiqalari ham shu haqda so‘zlaydi. Bunday noyob ashyolarda tariximiz va madaniyatimizning bizga noma’lum qirralari, ochilmagan sahifalari bisyor. Shuning uchun ham ularni asrash, tadqiq etish bugunni o‘tmishga yanada yaqinlashtiradi.

Mazkur maqola ham tariximizning ana shu ochilmagan yoki qayta-qayta tahlillarga muhtoj bo‘lgan sahifalaridan hisoblangan Chingizzon bilan Qutbiddin Muhammad Xorazmshoh o‘rtasidagi tarixga, diplomatik jarayonlarga va Chingizzxonning Markaziy Osiyoga qilgan bosqinchilik yurishlarining asl maqsadlariga qaratilgan. Unda o‘z davrining ikki buyuk hukmdorlari to‘qnashuvining vujudga kelishi sabablari, omillari va natijalari sharq manbalari va zamonaviy tadqiqot natijalari asosidagi tahlillardan iborat.

**Kalit so‘z:** Chingizzon, Qutbiddin Muhammad Xorazmshoh, Turkon Xotun, an-Nosir, Inoljuq (G‘ayirxon), Movarounnahr, Mo‘g‘ullar sulolasi.

Markaziy Osiyo xalqlari uch ming yildan ortiqroq davrni o‘z ichiga qamrab olgan hamda uzoq vaqt davomida boshqa elatlar va davlatlar bilan uzviy aloqada bo‘lib kelgan xalqlardir. Shular jumlasidan, O‘zbek davlatchiligi tarixi ham chuqur o‘tmishga ega va bosqinchilik yurishlariga guvoh bo‘lgan xalqlardan hisoblanadi. Xususan, XIII asrda yuz bergen Mo‘g‘ullar xoni Chingizzon tomonidan Anushtegin Xorazmshohlar davlatining istilo qilinishi O‘zbek davlatchiligi tarixida hayot darajasini tubdan o‘zgartirib yubordi. Bu bosqinchilik yurishlarining asorati XIX asrgacha xususan, Movarounnahr hududida tashkil topgan davlatlarning ijtimoiy va sulolaviy boshqaruv tizimiga o‘z tasirini ko‘rsatib keldi. Qolaversa, Mo‘g‘ullarning Markaziy Osiyoga bosqinchilik yurishlarini nima maqsadda amalga oshirganligi haqida G‘arb va Sharq tadqiqtchilari tomonidan berilgan yondashuvlar turlicha. Aynan mazkur darr tarixi

mahalliy tadqiqotchilarimiz tomonidan yetarlicha o‘rganilmayotganligi bilan ham farqlanadi. Shu boisdan, ushbu maqolada Chingizzon bilan Qutbiddin Muhammad Xorazmshoh o‘rtasidagi diplomatik jarayonlarga va Chingizzonning Markaziy Osiyoga qilgan bosqinchilik yurishlarining asl maqsadlariga yana bir bor tadqiqotimizning dolzarb masalasi sifatida qaraldi.

XIII asr boshlarida Xorazmshohlar davlati o‘z davrida Markaziy Osiyodagi Islom olamining eng qudratli davlatlaridan biri hisoblangan. Bu yuksalish aynan Qutbiddin Muhammad Xorazmshohning (1200-1220) hukmronlik davriga to‘g‘ri keldi<sup>1</sup>. Bu orada Sharqda Mo‘g‘ul urug‘lari orasidagi ichki kurashlarda Temuchin (1155-1227) g‘olib chiqib, 1206-yilda Onon daryosi<sup>2</sup> bo‘yida chaqirilgan qurultoyda Ulug‘ Xon (Xoqon) deb e’lon qilindi<sup>3</sup>. Unga qurultoy tomonidan “Chingiz” nomi berildi<sup>4</sup>, Mo‘g‘ullar davlatiga asos solindi.

Savol tug‘iladiki, 1218-1219-yil Markaziy Osiyoga<sup>5</sup> kirib kelgunga qadar davlat bo‘lib shakllanganiga 13 yilgina bo‘lgan, Mo‘g‘ullar xoqoni Chingizzonning qudratli Xorazmshohlar davlatiga istilochilik yurishlarini amalga oshirishga nima undadi? Bu vaqtida Mo‘g‘ullarga hudud jihatdan qo‘shti bo‘lib qolgan, chetdan qaraganda juda mustaxkam, ammo ich-ichidan yemirilib borayotgan hali ham halifalik tarkibida qaralgan Xorazmshohlarni batamom yo‘q qilishmi? Davlat boshqaruvida Turkon xotun o‘g‘lining davlatni ichki va tashqi boshqaruviiga nisbatan qarama qarshi siyosatmi? Yoki, ushbu sultanat hududini kesib o‘tgan Buyuk Karvon yo‘limi? Bu kabi savollar talaygina. Xitoy manbalarida xususan, 1221-yil Chingizzon bilan Xorazmga kelgan Elyuy Chu-Jay o‘zining “G‘arbga sayohat tavsifi”<sup>6</sup> asarida Chingizzonning maqsadi faqatgina O‘tror voqeasi uchun Sulton Xorazmshohdan va uning yurtidan o‘ch olish bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar ham bor.

Tarixdan ma’lumki, ikki davlat o‘rtasidagi harbiy urushlar diplomatik jarayonlarning natijasi o‘larоq shakllanadi<sup>7</sup>. Chingizzon va Xorazmshoh o‘rtasidagi siyosiy jarayonlarda ham diplomatiyaning ahamiyati va tasiri katta bo‘ldi<sup>8</sup>. Shu bois,

<sup>1</sup> Жабборов И. Буюк Хоразмшохлар давлати: (Қадимий тарих саҳифалари). // Масъул муҳаррир: С.К.Камолов. – Тошкент: “Шарқ”, 1999. – Б 108-109.

<sup>2</sup> Абу Абдуллоҳ аш-Шоший. Мўғул босқини ёҳуд мусулмонларнинг қонли кечмиши. – Рабваҳ: Islamic Propagation office. – Б. 27.

<sup>3</sup> Шарафуддин Али Яздий. “Зафарнома”. Муқаддима. 1-китоб. // Форс тилидан таржима, сўз боши ва илмий изоҳларо муаллифи Омонулло Бўриев. Шахс исмлари, жой номлари, этник номлар ва атамалар кўрсаткичини тузувчи Азизjon Шарипов. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти давлат корхонаси, 2020. – Б. 128.

<sup>4</sup> O’sha yerda.

<sup>5</sup> Шоший. Мўғул босқини. – Б. 36.

<sup>6</sup> Буниётов З.М. Ануштегин-Хоразимшохлар давлати (1097-1231). Рус тилидан Ашраф Аҳмад ва Махкам Махмуд таржимаси. – Тошкент: Фоғур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998. – Б. 172.

<sup>7</sup> Erqo‘ziyev A.A. Xalqaro munosabatlар va diplomatiya tarixi. – Namangan, 2019. – В. 27.

<sup>8</sup> Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия боскинига кадар). – Тошкент: “Шарқ”, 2000. – Б. 138.

bu ikki hukmdor o‘rtasida bo‘lgan diplomatik jarayonlarda Chingizzonning qo‘li baland keldi<sup>1</sup>. Muhammad Xorazmshohning Chingizxon ga nisbatan har jahbada imkoniyatlari keng edi. Ammo diplomatiyada sultanati va xalqini qo‘ldan boy berishiga, o‘z yurtini Mo‘g‘ullar qo‘liga topshirib ochib ketishiga qaysi omillar majbur qildi? Bu jarayonlar haqida shu davning eng asosiy manbalaridan xususan, Sharofiddin ali Yazdiy<sup>2</sup>, Juvayniy<sup>3</sup>, Ibn al-Asir<sup>4</sup>, Abu Abdulloh ash-Shoshiy<sup>5</sup>, Nasaviy<sup>6</sup> kabilarning asarlari guvohlik beradi va zamonaviy tadqiqotlardan V.V.Bartold<sup>7</sup>, Ahmet Temir<sup>8</sup>, John Andrew Boyle<sup>9</sup> asarlari ushbu davr haqida qimmatli ma’lumotlarni beradi.

Chingizzonning Xitoyda kiritilgan yutuqlari va 1211-1215-yilda Pekinni egallashi bilan yakunlangan g‘alabalari uning nomini Mo‘g‘ul qabilalarining birlashuvidan ham ulug‘ladi<sup>10</sup>. Manbalarning guvohlik berishicha, Muhammad Xorazmshohda ham Chingizxon kabi Xitoyni zabit etish rejasi bo‘lgani va harbiy tayorgarlik ko‘rganligi bayon etiladi<sup>11</sup>. Vaholangki, Gurxon ustidan qozonilgan g‘alaba Qutbiddin Muhammadni Chingizzonning ittifoqchisi Kushluxon<sup>12</sup> (ba’zi manbalarda Kuchlukxon) bilan yuzlashtirdi<sup>13</sup>. Sababi, Gurxon siyosiy jihatdan uning ta’siriga tushib qolgan edi. Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh o‘rtasidagi hududiy, siyosiy va diplomatik jarayonlarda Kushluxon, xalifa An-Nosir, Turkon xotun va Mahmud Yalavochning ham ta’siri katta bo‘ldi. Bu siyosiy vaziyatlarda Kushluxonning ham tasirini kuzatamiz.

<sup>1</sup> O’sha yerda.

<sup>2</sup> Шарафуддин Али Яздий. “Зафарнома”. Муқаддима. 1-китоб. – 352 б.

<sup>3</sup> Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жаҳонгушо (Жаҳон фотиҳи тарихи)/ Алоуддин Атомалик Жувайний; масъул муҳаррирлар Ҳ.Болтабоев, М.Махмудов. – Тошкент: “MUMTOZ SO’Z”, 2015. – 504 б.

<sup>4</sup> Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-Тарих. Полный свод. Пер. с арабского языка, примечания и комментарии П.К.Булгакова, дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С.Камолиддина. – Ташкент: УЗБЕКИСТАН, 2006. – 560 с.

<sup>5</sup> Абу Абдуллоҳ аш-Шоший. Мўғул босқини ёхуд мусулмонларнинг қонли кечмиши. – Рабваҳ: Islamic Propagation office. – 369 б.; Абу Абдуллоҳ аш-Шоший. Мўғул татар қиссаси. 1-китоб. – Рабваҳ: Islamhouse 2112-1433. – 628 б.

<sup>6</sup> Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди хаёти. – Тошкент: Ўзбекистон; Ёзувчи, 1999. – 432 б.

<sup>7</sup> Бартольд В.В. Образование империи Чингиз-хана // Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества. Т. X. 1896. – СПб.: Типография Императорской Академии Наук, 1897. – С. 105-119.; Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения. Т. I. – Москва: Издательство восточной литературы, 1963. – 760 с.; Бартольд В.В. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. Сочинения. Т. IX. – Москва: Наука, 1968. – 759 с.

<sup>8</sup> Ahmed Temir. Moğolların gizli tarihi. – Ankara: Turk tarih Kurumu Basimevi, 1986. – 351 s.

<sup>9</sup> Boyle A. John. The Successors of Genghis Khan. – New York, London, Columbia University Press, 1971. – 372 p.

<sup>10</sup> Бартольд В.В. Работы по истории и Филологии. – С. 460.

<sup>11</sup> Xayullaev M.M. O’zbek diplomatiyasi tarixidan. Tarixiy ocherklar va lavhalar. – Toshkent, 2003. – В. 28.

<sup>12</sup> Кушлухон – Чингизхон замондоши, найманлар хукмдори. Унинг номи манбаларда хар хил учрайди. Ибн ан-асир – Кашили, Рашидиддин – Лушлу, Муқаддас битикларда – кишилик, Раверти – Кожлак деб ёзишиади.

<sup>13</sup> Насавий. – Б. 33.

1210-yilning avgust sentyabr oylarida<sup>1</sup> Gurxonning Xorazmshoh bilan bo‘lgan jangdagi mag‘lubiyyati uni Kushluxonning ta’siriga tushirib qo‘ydi. Xorazmshoh Kushluxonga chopar orqali xat jo‘natib shunday dedi: “Xonlar xoni mening ilkimdan, to‘rimdan xalos bo‘ldi. Men uni har qanday talonchi uchun o‘lja, har qanday bosqinchi uchun qurbanlik sifatida qo‘yib yubormadim deya Gurxon, uning qizi Tugaz xotunni, atrofidagi odamlari, mol-mulki, xazinasini qaytarishni qat’iy talab qildi. Bunga javoban Kushluxon Gurxonni uning huzuriga olib bora olmasligini bildirib uzr so‘radi. Fikrimizcha, Kushluxon Gurxonni Xorazmshohga berishi turkiylar ko‘z o‘ngida bir umrga uyatga qolishidan va yuzidagi bu dog‘ni hech qachon o‘chira olmasligidan havfsirard”<sup>2</sup>.

Fikrimizcha, Sultonning mag‘lub Gurxonni qo‘yib yuborishidan maqsadi Xitoy uchun rejalashtirayotgan yurishida o‘ziga ittifoqdosh qilish edi. Xorazmshoh tomonidan Kushluxon huzuriga bu ish yuzasidan yuborilgan so‘ngi elchi amir Muhammad ibn Qora Qosim an-Nasaviy edi. Asta sekin Qashg‘ar va Xo‘tanni bosib olib musulmon olamiga soya solayotgan Kushluxonning maqsadi Chingizzxonning rejalariga zid edi<sup>3</sup>. Bu vaqtga kelib Chingizzxon Kushluxonning Qashg‘ar va Bolaso‘g‘unni bosib olganligini eshitgach, Xorazmshohlar yurti uchun qilingan rejalarini barbod qilishidan qo‘rqib Kushluxonni ham yo‘ldan olib tashladi<sup>4</sup>. Chunki Chingizzxon Xorazmshohlar davlatidagi ichki vaziyatlarni yaxshi bilgan holda, bosqinga bardosh bera olmasligini hufyona ayg‘oqchilar va bu sultanatdagi ikkinchi hukmdor, Turkon xotun vositachiligidida juda yaxshi habardor edi. Shu o‘rinda, Turkon xotunning davlat boshqaruvidagi nufuzi haqida Nasafiyning bergen ma’lumotlari quyidagicha: “Turkon xotun o‘g‘liga shu darajada o‘z ta’sirini o‘tkazganki, natijada Muhammad Xorazmshoh davlat ichkarisidagina emas, balki tashqi siyosatda ham Xorazmning yagona hukmdori sifatidagi ro‘lini boy berdi”<sup>5</sup>.

Turkon xotunning sultanatdagi yakka hukmronlik uchun intilishi Chingizzxon uchun ayni muddao edi. Ikkinchidan, Sultonning harbiy strategik harakatlarining natijasi o‘laroq, dastavval Xitoya emas balki, Arab halifaligiga lashkar tortishi halifa an-Nosir bilan dushmanlik kayfiyati uning Chingizzxon<sup>6</sup> bilan ittifoqdoshga aylanishiga sabab bo‘ldi. An-Nosirning Chingizzxon<sup>7</sup> va Kushluxonga<sup>8</sup> o‘z elchilarini yuborganligi haqida manbalar guvohlik beradi.

<sup>1</sup> Насавий. – Б. 31.

<sup>2</sup> Насавий. – Б. 34.

<sup>3</sup> Бунийёдов З.М. Ануштагин Хоразмшохлар давлати. – Б. 162.

<sup>4</sup> O‘sha asar. – В. 163.

<sup>5</sup> Насавий. – Б. 91.

<sup>6</sup> Xayrullaev M.M. O’zbek diplomatiyasi tarixidan. – В. 27.

<sup>7</sup> Гарольд Лэмб. Чингисхан. Властелин мира // Перевод Л.А.Игоревского. – Москва: Центрполиграф, 2007. – С. 91.; Xayrullaev M.M. O’zbek diplomatiyasi tarixidan. – В. 30.

<sup>8</sup> Бартольд В.В. Образование империи Чингиз-хана. – С. 110.

Vaziyat jiddiy tus olayotgan bir vaqtida g‘arbda Muhammad Xorazmshoh va Chingizzon o‘rtasidagi siyosiy jarayonlar quyidagicha edi. Sulton Sharqda Chingizzonning 1215-yil Xitoydagi g‘alabalari xabarini olgach, Pekinga uning huzuriga o‘z elchilarini yuborishga qaror qildi. Xorazmshoh davlat arboblaridan biri Sayyid Ajall, Bahouddin Roziy boshchiligidagi Xitoya elchi jo‘natadi<sup>1</sup>. Boshqa bir manbada esa, 1216-yilda Chingizzon Xitoya bo‘lganligi va Xorazmshohning elchilarini kutib olish uchun Mo‘g‘ulistoniga qaytib kelganligi aytiladi<sup>2</sup>. Bu elchilikning maqsadi, Mo‘g‘ullar davlatini atroflicha o‘rganishdan iborat edi<sup>3</sup>. Zero, bu elchilarning yuborilishi Xorazmshohning diplomatiyadagi xatosi edi nazarmizda. Boisi, Chingizzon o‘z huzuriga kelgan Xorazmshoh elchilarini iliq kutib oldi, elchilarga izzat ikrom ko‘rsatib, ikki mamlakat o‘rtasida do‘stona munosabatlar hamda elchilar Xorazmga qaytayotganlarida Chingizzon Xorazmshohga atab ko‘plab nodir hadyalar va tuhfalar berib Chingizzon tijorat ishlarini yo‘lga qo‘yish niyatida ekanligini bildirib u elchilarga shunday hitob qildi: “Muhammad Xorazmshohga aytинг! Men kun chiqar tomon podshosi bo‘lsam, u kun botar tomon podshosidur. Bizning o‘rtamizda ahdu vafo, mehru muhabbat va do‘stlik mustahkam bo‘lsin va o‘zaro tijorat hamda karvonlar bordi-keldisi yo‘lga qo‘yilsin”<sup>4</sup>. Chingizzonning davlat sarxadlarini kengaytirish siyosatidan ko‘zlagan maqsadi aniq edi. Xoqon Bahouddin ar-Roziy bilan birgalikda 500 tuyalik karvonlarini qo‘shib o‘z elchilarini yuboradi, Xorazmshoh bu elchilar va savdo karvonini Buxoroda kutib oldi<sup>5</sup>.

Shiddatli siyosiy jarayonlar va raqobatning natijasida bu ikki davlat sarhadlari ham kengayib bordi, xususan Mo‘g‘ullar hududlarini Oltoy tog‘ tizmalarining g‘arbiy etaklari, Tyan-Shan, Balxash ko‘li havzasi va Issiq-Ko‘lgacha kengaytirib keldi. Sulton Xorazmshoh ham o‘z chegarasini Qipchoq Cho‘llarigacha yetkazdi<sup>6</sup>. Natijada Xorazm savdogarlari Oltoy dovoni orqali Mo‘g‘uliston va Xitoy bilan savdo-sotiq olib borish imkoniga ega bo‘ldilar. Juvayniyning yozishicha, Chingizzon davri oxirida havfsizlik taminlanib yurtida xalqning daromadi foydasi va boyligi eng yuqori darajaga chiqqan, yo‘llarda qaroqchilarning faoliyatiga chek qo‘yilib, savdogarlar daromad hidi kelgan har qanday joyga tortinmasdan keta olgan<sup>7</sup>. Mo‘g‘ullarning doimiy yashash joyi aniq bo‘limganligi uchun savdoda ularga tujjorlar<sup>8</sup> ko‘p ham uchrayvermagan.

<sup>1</sup> Xayrullaev M.M. O‘zbek diplomatiyasi tarixidan. – B. 28.

<sup>2</sup> Бартольд В.В. Работы по истории и Филологии. – С. 461.

<sup>3</sup> Буниётов З.М. Ануштегин-Хоразимшохлар давлати. – Б. 164.

<sup>4</sup> Tabakat-i-Nasiri: A General History of the Muhammadan Dynasties of Asia. By the Maulana, Minhaj-ud-din, Abu-'Umar-i-'Usman / Transl. by H.G.Raverty. V. I-II. – London, 1881. – P. 102.

<sup>5</sup> Буниётов З.М. Ануштегин-Хоразимшохлар давлати. – Б. 164.

<sup>6</sup> Xayrullaev M.M. O‘zbek diplomatiyasi tarixidan. – B. 29.

<sup>7</sup> Жувайний. – Б. 131.

<sup>8</sup> Savdogarlar, tijoratchilar.

Ular bilan savdo-sotiq qilishning foydali taraflari ko‘pligi hamma tarafga tarqalgan edi. Shu boisdan Muhammad Xorazmshoh yurtidan 1218-yil bahorida Chingizzonning qarorgohiga karvon bilan savdogarlardan Axmad Xo‘jandiy<sup>1</sup>, Amir Xusayn va uning o‘g‘li Axmad Balhiylar, Mo‘g‘ullar yurtiga savdo-sotiq uchun borganligi ma’lum qilinadi. Boshqa manbada bu savdogarlar o‘zлari kelishib olib Chingizzon yurtiga savdo-sotiq qilish uchun borganligi aytildi<sup>2</sup> nazarimizda bu savdogarlar Xorazmshoh buyrug‘iga muvofiq Mo‘g‘ular yurtiga borgan bo‘lishi kerak. Ular sharqiylar Turkistonni aylanib o‘tib, shimoliy yo‘l bilan Mo‘g‘ulistonga kirib borgan<sup>3</sup>. Aksariyat man‘balarda, Chingizzon Xorazmshohning elchilari va savdogarlarini iliq kutib olganligi bayon etiladi<sup>4</sup>. Chingizzon Sulton mamlakatiga tijorat qila oladigan 450 kishini to‘pladi<sup>5</sup>. Ularga nodir gazlamalarni keltirishlarini amr qildi. Shundan keyin Chingizzon sultonga quyidagi maktubni yo‘lladi: “Sizning mamlakatingizdan bu yerga tujjorlar keldi. Ularni mamnun qilib, sog‘-salomat yuborar ekanmiz, ular bilan birgalikda mamlakatingizda savdo-sotiq, oldi-sotdi qilib go‘zal va nodir gazlamalar bilan qaytib kelsinlar deb odamlarimizni yuborayapmiz. Mana shunday savdo munosabatlari oramizdagи tushunmovchilikka dushmanliklarni yo‘qotib, uning o‘rniga sevgi va do‘stlik keltirishiga kin va husumatning davom etishiga yo‘l bermasligiga sabab bo‘lajak”<sup>6</sup>.

Ayni vaqtda Chingizzonga Xorazmshohlar davlatini fath etish uchun sabab kerak edi. O‘trorga qarab yo‘lga otlangan bu karvonning talon taroj qilinishi Mo‘g‘ullar Xoqonining Xorazmshohlar davlatiga yurish qilishi uchun diplomatik o‘yini edi. Manbalarga ko‘ra, 1218-yil bu karvon bilan Mahmud al-Xorazmiy boshchiligidagi elchilar hay’ati Mo‘g‘ulistonni bir vaqtda tark etganligi haqidagi ma’lumotlar bor. Shu yil Xorazmshoh huzuriga Chingizzondan elchilar keldi, ular Mahmud al-Xorazmiy (Mahmud Yalavoch)<sup>7</sup>, Alixo‘ja al-Buxoriy va Yusuf O‘troriylardan iborat edi.

Chingizzon Movarounnahrlik savdogarlarni Xorazmshoh huzuriga elchi sifatida yuborishi ham bezizga emas edi. Ularning kelishidan maqsad o‘rtada tinchlik, do‘stlik, yaxshi qo‘schnichilik munosabatlari haqidagi kelishuv bitimini imzolatishdan iborat edi<sup>8</sup>. Maktub shunday bitilgan ediki, unda dastavval Xorazmshohning kuch qudrati bayon etilib so‘ngra Chingizzonning Xitoyni, qo‘shti Turkiy mamlakatlarni bosib

<sup>1</sup> Tojikistondagi shahar.

<sup>2</sup> Жувайний. – Б. 132.

<sup>3</sup> Бартольд В.В. Работы по истории и Филологии. – С. 462.

<sup>4</sup> Насавий. – Б. 35.; Жувайний. – Б. 132.; Яздий. – Б. 128.; Бартольд В.В. Работы по истории и Филологии. – С. 464.; Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Б. 137.

<sup>5</sup> Жувайний. – Б. 133.

<sup>6</sup> O’sha yerda.

<sup>7</sup> Mahmud Yalavoch, Mahmud Xorazmiy-Chingizzon xizmatida bo‘lgan turkiylarning Yalavoch urug‘iga mansub Xorazmlik savdogar. Chingizzon tomonidan Muhammad Xorazmshoh huzuriga elchi bo‘lib kelganligi uchun Yalavoch ismi bilan mashhur, Mahmud Yalavoch Qorxitoylar xizmatida ham bo‘lgan.

<sup>8</sup> Насавий. – Б. 74.

olganligi va uning vatanida behisob qo'shinlar, Kumush konlar borligi, boylik shu darajada ko'pligidan uni yana boshqa joylardan izlash ortiqcha ekanligi bildirilib, savdogarlarning ikkala tomonga borib kelishlari uchun yo'l ochilishi kerakligi yozilgan edi<sup>1</sup>. Shu boisdan, Chingizzon Sulton Muhammad Xorazmshohga "o'g'lim" deb murojat qildi<sup>2</sup>. Diplomatiya tilida bu "Qarolim"<sup>3</sup> degan bilan barobar bo'lib, aslida Sultonni janga undash edi. Elchilar zimmalariga yuklatilgan vazifani a'lo darajada bajarib Muhammad Xorazmshoh bilan tinchlik shartnomasini imzoladi va ortga qaytib ketdi.

Afsuski, bu kelishuv uzoqqa cho'zilmadi, Chingizzon mamlakatidan O'trorga Umar Xo'ja al-O'troriy, al-Jamol al-Marog'iy, Faxr ad-Din al-Jizzaxiy al-Buxoriy, Amin ad-Din al-Xaraviy<sup>4</sup> kabi savdogarlar kelgunga qadar davom etdi. Chingizzon va uning odamlari tomonidan tanlangan tujJORlar O'trorga borgan paytlarida u yerning boshqaruvchisi Inoljuq<sup>5</sup> edi. Sulton Qutbiddin Muhammad Xorazmshoh tog'asining o'g'li hisoblangan Inoljuq (yoki G'ayirxon<sup>6</sup>) yigirma ming otliq lashkarlari bilan sulton noibi<sup>7</sup> sifatida boshqarardi.

Manbalarda 450-500 kishidan iborat bu karvon haqida Ingliz olimi Herold Lemb shunday yozadi: "Muhammad Horazmshohga zudlik bilan chopar jo'natildi va Sultonga maktub yo'llanib, unda mo'g'ul karvonida ko'pgina josuslar mavjudligi aytilib, ular hibsga olingandan so'ng o'z ayblariga iqror bo'lganliklari bildirildi. Shu bilan birga, maktubda bu voqeа munosabati bilan qat'iy chora ko'rish maqsadida Sultondan amri-farmon kutmoqdamiz deyilgandi"<sup>8</sup>. Ammo farmoga javob kelishini kutmasdan 500 kishi tig'dan o'tkazildi. E'tiborlisi shuku, ulardan faqat bir mo'g'ul

<sup>1</sup> O'sha asar. – B. 75.

<sup>2</sup> Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Б. 138.

<sup>3</sup> O'sha asar. – B. 138.

<sup>4</sup> Chingizzon Xorazmga yuqorida nomlari sanalgan to'rtta savdogar boshchiligidida katta savdo karvonini hozirlaydi. Bazi ma'lumotlarga qaraganda, karvonda 450 odam bo'lgan, ularning hammasini musulmonlar tashkil etgan. – qarang: Tabakat-i-Nasiri. – P. 1201.; Abul Farajning ma'lumotlariga ko'ra, karvonda 400 savdogar bo'lgan. Shu bilan birga Xorazmshoh huzuriga yo'llangan elchi unga Chingizzon nomidan "Biz endilikda zamindagi barcha mamlakatlar o'rtasida osoyishtalik bo'lishini talab qilamiz. Savdogarlar qo'quv bilmasdan barcha o'lkalarga bora olsinlar. Boylar va faqirlar yaratganga shukronalar ayтиb hamkorlikda yashasinlar" degan mazmunda noma topshirilgan. – qarang: The Chronography of Gregory Abû'l Faraj, the Son of Aaron, the Hebrew Physician, Commonly Known as Bar Hebraeus, Being the First Part of his Political History of the World: in 2 vol. / Ed., trans. E. A. W. Budge. London: Oxford University Press, 1932 [Repr.: Amsterdam: APA - Philo Press, 1976]. Vol. I: English Translation. – P. 103.; Boshqa ma'lumotlarda esa karvonda Chingizzon elchisi Uxun boshchiligidida 100 odam bo'lgan. Juzjoniy karvonda oltin, kumush, ipak va boshqa maxsulotlar ortilgan 500 tuya bor edi, deb yozadi. Bu karvon haqida Ibn al-Asir, Ibn Xoldun va boshqalar ham turli ma'lumotlar beradilar. – Boyle A. John. The Seccessors of Genghis Khan. – New York, London, Columbia University Press, 1971. – P. 95.

<sup>5</sup> Inoljuq – chig'atoj turkchasida *Inol* - "Shaxzoda" ma'nosini bildiradi. Bu so'z unvon bo'la olishi bilan birga ism ham bo'lishi mumkin.

<sup>6</sup> G'ayir – turkmancha bo'lgan bu so'z "qudratli" ma'nosini bildiradi.

<sup>7</sup> Noib – Mo'g'ul tilidagi *darug'achi* (*dorug'a*) va forscha *shihna* turkiylarning *bosqoq* atamasi bilan bog'liq bo'lib, u bilan bir hil ma'noda qo'llanilgan.

<sup>8</sup> Гарольд Лэмб. Чингисхан. Властелин мира // Перевод Л.А.Игоревского. – Москва: Центрполиграф, 2007. – С. 87.

omon qolgan xolos. Bir so‘z bilan aytganda har qanday savdo karvonida joslarning bo‘lishi tabiiy hol, albatta. Zero, Sulton Xorazmshoh Chingizzonga yuborgan Savdo karvonlarining ichida ham joslalar bor edi. Xorazmshohlar yurtidagi bu savdo karvoni bilan bo‘lgan voqeaga to‘xtalsak, O‘tror hokimi bevosita Turkon xotunning tasirida bo‘lib, bu ish unning siyosiy va diplomatiyadagi islohotlarining bir ko‘rinishi edi. Aslida Sultonga yuborilgan maktub bir rasmiyatichilik bo‘lgan deb o‘ylaymiz<sup>1</sup>.

O‘trordagi tarixiy mudhish voqea Chingizzonga Xorazmshohlar yurtini fath etishi uchun bir sabab bo‘ldi. Mo‘g‘ullar yurtidan kelgan karvon haqiqatdan ham tijoratchilar bo‘lganmi yoki joslalar? Sharq va G‘arb tadqiqotchilari o‘rtasida bu masalaga doir qarashlar farqliligicha qolmoqda. Bu voqea yuzasidan Chingizzon Sultonga elchi yuborib aybdorlarni unga berishni talab qildi. Arosatda qolgan Xorazmshoh aybdorlarni ham bera olmas edi, shu bois ichki va tashqi siyosatda o‘z xalqi hamda davlatini qo‘ldan boy berdi. O‘tror voqeasi Chingizzonga maqsadlarini amalgaloshirishi uchun diplomatik o‘yini bo‘ldi, Chingizzon boshchiligidagi mo‘g‘ul bo‘roni Markaziy, Janubiy va G‘arbiy Osiyoga qarab esa boshladi.

Xulosa qilib aytganda, Chingizzon va Muhammad Xorazmshoh o‘rtasidagi siyosiy vaziyatni manbalardagi tahlili shuni ko‘rsatadiki, ikki hukmdorning ham hududlarni kengaytirish borasidagi maqsadi bitta edi. Yani, Buyuk Ipak Yo‘liga hukmronlik qilish. Bunda Chingizzonning qo‘li baland kelib diplomatiyada Xorazmshohning nuqsonlaridan foydalandi. Aksariyat tadqiqotchilar tomonidan Anushtegin Xorazmshohlar davlatining inqirozga yuz tutishida Muhammad Xorazmshohni aybdor deb hisoblashadi. Aslida bu, davlat ichidagi ikkinchi davlat hukmdori Turkon xotunning islohotlari natijasi edi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Ahmed Temir. Moğolların gizli tarihi. – Ankara: Turk tarih Kurumu Basimevi, 1986. – 351 s.
2. Bekmuradov S.T. “Al-Mulhakat Bi-S-Surah” and Translations with Notes of the Chapter about History of Mongols // International Journal of Central Asian Studies Volume 22. 2018. – P. 171-192.
3. Bekmuradov S.T. Chig‘atoy ulusi boshqaruvi legitimligida islomning ahamiyati // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 9, issue 5. – 2021. – P. 708-720.
4. Bekmuradov S.T. Chig‘atoy ulusida ilk boshqaruv shakli // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Special issue 5. – 2021. – P. 249-265.

<sup>1</sup> Xayrullaev M.M. O‘zbek diplomatiyasi tarixidan. – B. 29.

5. Boyle A. John. The Seccessors of Genghis Khan. – New York, London, Columbia University Press, 1971. – 372 p.
6. Djurakulova D.M. Chingizzon va uning vorislari davri tarixi. – Samarqand, 2019. – B 15.
7. Erqo‘ziyev A.A. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi. – Namangan, 2019. – 240 b.
8. Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. – Toshkent, 2012. – 289 b.
9. Shamsimuxammedov I. Diplomatik terminlar izohli lug‘ati / Izohli lug‘at, – Toshkent: “Donishmand ziyosi”, 2021. – 224 b.
10. Tabakat-i-Nasiri: A General History of the Muhammadan Dynasties of Asia. By the Maulana, Minhaj-ud-din, Abu-'Umar-i-'Usman / Transl. by H.G.Raverty. V. I-II. – London, 1881. – 1296 p.
11. The Chronography of Gregory Abû'l Faraj, the Son of Aaron, the Hebrew Physician, Commonly Known as Bar Hebraeus, Being the First Part of his Political History of the World: in 2 vol. / Ed., trans. E. A. W. Budge. London: Oxford University Press, 1932 [Repr.: Amsterdam: APA - Philo Press, 1976]. Vol. I: English Translation. – lxx, 660 p.
12. Togan Z.V. Çengiz Han (1155-1227). – Türkiye: Kış Sömestresi, 1969-79. – 67 s.
13. Xayrullaev M.M. O‘zbek diplomatiyasi tarixidan. Tarixiy ocherklar va lavhalar. – Toshkent, 2003. – 178 b.
14. Абу Абдуллоҳ аш-Шоший. Мўғул босқини ёхуд мусулмонларнинг қонли кечмиши. – Рабваҳ: Islamic Propagation office. – 369 б.
15. Абу Абдуллоҳ аш-Шоший. Мўғул татар қиссаси. 1-китоб. – Рабваҳ: Islamhouse 2112-1433. – 628 б.
16. Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жаҳонгушо (Жаҳон фотихи тарихи)/ Алоуддин Атомалик Жувайний; масъул муҳаррирлар Ҳ.Болтабоев, М.Махмудов. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2015. – 504 б.
17. Бартольд В.В. Образование империи Чингиз-хана // Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества. Т. X. 1896. – СПб.: Типография Императорской Академии Наук, 1897. – С. 105-119.
18. Бартольд В.В. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. Сочинения. Т. IX. – Москва: Наука, 1968. – 759 с.
19. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения. Т. I. – Москва: Издательство восточной литературы, 1963. – 760 с.
20. Буниётов З.М. Ануштегин-Хоразимшохлар давлати (1097-1231). Рус тилидан Ашраф Аҳмад ва Маҳкам Маҳмуд таржимаси. – Тошкент: Фоур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998. – 256 б.

21. Гарольд Лэмб. Чингисхан. Властелин мира // Перевод Л.А.Игоревского. – Москва: Центрполиграф, 2007. – 168 с.
22. Жабборов И. Буюк Хоразмшохлар давлати: (Қадимий тарих сахифалари). // Масъул мұҳаррир: С.К.Камолов. – Тошкент: “Шарқ”, 1999. – 144 б.
23. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: “Шарқ”, 2000. – 368 б.
24. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-Тарих. Полный свод. Пер. с арабского языка, примечания и комментарии П.К.Булгакова, дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С.Камолиддина. – Ташкент: УЗБЕКИСТАН, 2006. – 560 с.
25. Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи (Британия музейи (Англия) қўллўзмаси. инв. № ADD 26190: Тарих-и арбаъ улус). – Тошкент: Чўлпон, 1994. – 352 б.
26. Ражабов Қ. Ўзбекистон тарихи ёш тадқиқотчилар нигоҳида. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2010. – 120 б.
27. Шарафуддин Али Яздий. “Зафарнома”. Муқаддима. 1-китоб. // Форс тилидан таржима, сўз боши ва илмий изоҳларо муаллифи Омонулло Бўриев. Шахс исмлари, жой номлари, этник номлар ва атамалар кўрсаткичини тузувчи Азизжон Шарипов. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти давлат корхонаси, 2020. – 352 б.
28. Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти. – Тошкент: Ўзбекистон; Ёзувчи, 1999. – 432 б.